



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI



VOL.3 № 1

2026

ANNEMARIYE SHIMMEL MEROSI ASOSIDA TALABALARDA MA'NAVY- AXLOQIY FAZILATLARNI SHAKLLANTIRISH BO'YICHA TAJRIBA-SINOV ISHLARI NATIJALARI

Po'latova Zubayda Abduravupovna
Navoiy innovatsiyalar universiteti, o'qituvchi

da Annemariye Shimmel merosi asosida talabalarda ma'naviy-axloqiy fazilatlarni shakllantirish bo'yicha tashkil qilingan tajriba-sinov ishlarining natijalari haqida so'z boradi. Natijalar tahlil qilinib, tegishli xulosalar chiqarilgan. Tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan metodikani oliy ta'lim muassalari nemis tili ta'lim yo'nalishi talabalarining o'quv jarayoniga keng ko'lamda tadbqiq etish masalari yoritilgan.

Kalit so'zlar: Annemariye Shimmel, tajriba-sinov, ma'naviy-axloqiy fazilatlar, oliy ta'lim muassasasi, respondent talaba

РЕЗУЛЬТАТЫ ЭКСПЕРИМЕНТАЛЬНОЙ РАБОТЫ ПО ФОРМИРОВАНИЮ ДУХОВНО-НРАВСТВЕННЫХ КАЧЕСТВ У СТУДЕНТОВ НА ОСНОВЕ НАСЛЕДИЯ АННЕМАРИЕ ШИММЕЛЬ

Пўлатова Зубайда Абдуравуповна
преподаватель, Навоийский университет инноваций

Аннотация. В данной статье рассказывается о результатах экспериментальной работы, организованной по формированию духовно-нравственных качеств у студентов на основе наследия Аннемари Шimmel. Результаты были проанализированы и сделаны соответствующие выводы. Освещены вопросы широкого применения разработанной в рамках исследования методики в образовательном процессе студентов высших учебных заведений немецкого языка.

Ключевые слова: Аннемари Шimmel, эксперимент, духовно-нравственные качества, высшее учебное заведение, студент-респондент

RESULTS OF EXPERIMENTAL WORK ON THE FORMATION OF SPIRITUAL AND MORAL QUALITIES IN STUDENTS BASED ON THE HERITAGE OF ANNEMARIE SCHIMMEL

Polatova Zubayda Abduravupovna
Lecturer, Navoi University of Innovation

Annotation. This article describes the results of experimental work organized on the formation of spiritual and moral qualities among students based on the legacy of Annemarie Schimmel. The results were analyzed and appropriate conclusions were drawn. The issues of wide application of the methodology developed in the framework of the study in the educational process of students of higher educational institutions of the German language are highlighted.

Key words: Annemarie Schimmel, experiment, spiritual and moral qualities, higher education institution, student respondent

Kirish. Annemariye Shimmel merosi asosida talabalarda ma'naviy-axloqiy fazilatlarni shakllantirishning aniqligi va samaradorligi tajriba-sinov ishlarini loyihalash va ularni amalga oshirish belgilangan natijalarning maqsadga muvofiqligi bilan aniqlandi. Shu sababli pedagogik tajriba-sinov ishlarimiz, ya'ni tadqiqot jarayonida ishlab chiqqan Annemariye Shimmel merosi

asosida talabalarda ma'naviy-axloqiy fazilatlarni shakllantirishning ilmiy-metodik jihatdan to'g'riligini hamda pedagogika nazariyasi nuqtai nazaridan haqqoniyligini ko'rsatdi. Annemariye Shimmel merosi asosida talabalarda ma'naviy-axloqiy fazilatlarni shakllantirish bo'yicha olib borilgan tajriba-sinov ishlarining natijaviyligi tadqiqotda berilgan ma'lumotlarning nechog'li ahamiyatli ekanligi bilan tavsiflanadi. Tajriba-sinov ishlari jarayonida Annemariye Shimmelning pedagogik qarashlari, ma'naviy-axloqiy tarbiya bo'yicha fikrlari, asarlarida yoritilgan ma'naviy-axloqiy fazilatlar barkamol avloq tarbiyasi uchun naqadar zarurligi aniqlab olindi. Annemariye Shimmelning pedagogik qarashlaridan "O'qish va yozish ko'nikmalari", "Madaniyatlararo muloqot", "Amaliy grammatika va fonetika" fanlarini o'qitish jarayonida foydalanish muhim ekanligini tajriba-sinov yordamida aniqlab olindi.

Asosiy qism. Tajriba-sinov obyektlarida olib borgan ishlarimiz Annemariye Shimmel hayoti va ijodi, uning ma'naviy-axloqiy tarbiyaga oid qarashlari, "Mystische Dimensionen des Islam", "Morgenland und Abendland. Mein west-östliches Leben", "Und Muhammad ist sein Prophet", "Ich bin Wind, du bist Feuer" kabi mashhur asarlaridagi ma'naviy-axloqiy fazilatlarga doir ma'lumotlarni va shu fazilatlarni egallaganlik darajasi matematik statistik tahlil metodi yordamida tahlil qilishga imkon beruvchi yuqori, o'rta va past darajalar asosida aniqlandi.

1. Yuqori daraja- Annemariye Shimmel hayoti va ijodi haqidagi ma'lumotlarga ega bo'lib, fikrini bayon eta oladi. Annemariye Shimmel haqida adabiyotshunoslik "O'qish va yozish ko'nikmalari", "Madaniyatlararo muloqot", "Amaliy grammatika va fonetika" kabi fanlarni o'rganish jarayonida o'zlashtirilgan ma'lumotlar doirasida Annemariye Shimmel asarlari haqidagi tushunchalarni bayon eta oladi. Olimaning asarlarida ilgari surilgan ma'naviy-axloqiy fazilatlarni: adolat, kamtarlik, mehnatsevarlik, fidoiylik, insonparvarlik, nafsni yengish, bag'rikenglik, o'zlikni anglash va rivojlanish kabilarni filologik va falsafiy nuqtai nazardan bayon etib, bu sifatlar Annemariye Shimmelning "Mystische Dimensionen des Islam", "Morgenland und Abendland. Mein west-östliches Leben", "Und Muhammad ist sein Prophet", "Ich bin Wind, du bist Feuer" asarlarida ifodalanganini izohlaganlar.

2. O'rta daraja- Annemariye hayoti va ijodi haqidagi ma'lumot bera oladi. Annemariye Shimmel asarlarini tasavvuf, falsafa, adabiyotshunoslik nuqtai nazaridan tavsiflay oladi. Annemariye Shimmel asarlarida berilgan adolat, kamtarlik, mehnatsevarlik, fidoiylik, insonparvarlik, nafsni yengish, bag'rikenglik, o'zlikni anglash va rivojlanish kabi ma'naviy-axloqiy fazilatlarni adabiyotshunoslik fani doirasida bayon etgan. Biroq bu tushunchalarning ma'naviy-axloqiy, komil shaxs nuqtai nazaridan asoslashga yetarli darajada faollik ko'rsata olmaydi.

3. Past daraja- Annemariye Shimmel hayoti va ijodi haqida qisman ma'lumot bera oladi. Ammo uning asarlaridagi ma'naviy-axloqiy tarbiyaga oid masalalarni tasavvufiy va falsafiy jihatdan ajratishga qiynaladi. Ayniqsa Annemariye Shimmelning "Mystische Dimensionen des Islam", "Morgenland und Abendland. Mein west-östliches Leben", "Und Muhammad ist sein Prophet", "Ich bin Wind, du bist Feuer" asarlari to'g'risida ma'lumotga ega emas.

Tadqiqot jarayonida Annemariye Shimmel asarlaridagi ma'naviy-axloqiy tarbiyaga oid qarashlari to'g'risida auditoriya va auditoriyadan tashqari ma'naviy-ma'rifiy ishlar tashkil etildi. Tadqiqotning tasdiqlovchi bosqichida esa tajriba guruhlari uchun "O'qish va yozish ko'nikmalari", "Madaniyatlararo muloqot", "Amaliy grammatika va fonetika" fanlarini o'qitishda hamda „Annemariye Shimmel merosini o'rganish“ nomli modulli kurs tashkil qilinib, ular vositasida Annemariye Shimmel hayoti va ijodi, ilmiy merosi, uning ma'naviy-axloqiy tarbiyaag oid fikrlari, ma'naviy-axloqiy fazilatlar haqida ma'lumotlar berdik.

Oliy o'quv yurti talabalarida fanlarni o'qitish va modulli kursni o'qitish tarkibidagi ma'lum bir pedagogik prinsiplarga amal qilishni taqozo etadi. Bu prinsiplarga amal qilib, o'quv mashg'ulotlari tashkil etildi. Bular:

1. Yuqorida ko'rsatilgan fanlar va modulli kurs tarkibidagi mavzular ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot, siyosiy hamda ma'naviy-ma'rifiy hayot talablariga mosligi prinsipi
2. Talabalarga berilayotgan ma'lumotlarning bo'lajak kasb uchun ahamiyati hamda kasbiy, shaxsiy hamda ma'naviy-axloqiy fazilatlarining rivojlanishiga qaratilganlik prinsipi
3. O'rganilgan ma'lumotlarning maqsadga yo'nalganlik prinsipi
4. Hayoti va ijodi o'rganilayotgan Annemariye Shimmelning asarlarida keltirilgan g'oyalarning komil inson tarbiyasi g'oyalarga mosligi
5. Annemariye Shimmel pedagogik qarashlarining talabalar ma'naviy-axloqiy salohiyatini rivojlantirishga asoslanganlik prinsipi
6. Tajriba-sinov ishlariga jalb etiladigan professor-o'qituvchilarning tadqiqot mavzusiga oid ma'lumotlarga egalik darajalarini inobatga olish prinsipi

Ushbu prinsiplar asosida tajriba-sinov ishlarini tashkil etish pedagogik tajribada sinalgan kuzatish, anketa so'rovnomalari olish, suhbat, pedagogik eksperiment, olingan ma'lumotlarni tahlil qilish, kamchiliklarni o'rganish va tuzatish kiritish kabi tadqiqot metodlari hamda Annemariye Shimmel qalamiga mansub asarlarni nemis tilida o'qish, tarjima qilish, matbuot materiallaridan foydalanish tajriba-sinov ishlarimizning samarasini belgilab beradi. Pedagogik nazariya va tajribaning ko'rsatishicha, har qanday faoliyat zamonaviy innovatsion-axborot texnologiyalari asosida olib borilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi. Shu bois tajriba-sinov ishlari davomida tajriba guruhlarida o'qitishning innovatsion texnologiyalaridan foydalandik. "Annemariye Shimmel merosini o'rganish" nomli modulli kursni o'qitishda va "O'qish va yozish ko'nikmalari", "Madaniyatlararo muloqot", "Amaliy grammatika va fonetika" fanlari mazmunidagi tadqiq qilinayotgan muammo doirasidagi mavzularni o'rganishda "Muammoli o'qitish", "Insert strategiyasi", "FSMU texnologiyasi", "Muammoli vaziyat" kabilar hamda ma'ruza-suhbat, ma'ruza-munozara shakllaridan; "aqliy hujum", "tanqidiy fikrlash", "refleksiv yozuv", "keys topshirig'i", "kichik guruglarda ishlash", "munozara" kabi interfaol usullar yordamida auditoriya va auditoriyadan tashqari mashg'ulotlar tashkil qilindi. Tashkil etilgan tajriba-sinov ishlarining yakunlovchi bosqichida quyidagi topshiriqlar tajriba guruhi talabalariga yechish uchun tarqatildi.

1-topshiriq: Annemariye Shimmel hayoti va ijodi haqida, uning ma'naviy merosi haqida qanday ma'lumotlarga egasiz, fikringizni manbalar asosida izohlang. 2-topshiriq: Annemariye Shimmelning sizga tavsiya etilayotgan "Mystische Dimensionen des Islam", "Und Muhammad ist Sein Prophet", „Morgenland und Abendland. Mein west-östliches Leben“ va "Ich bin der Wind, du bist Feuer" asarlarida bayon etilgan pedagogik qarashlar va ma'naviy-axloqiy tarbiyaga oid qanday ma'lumotlar mavjud? 4-topshiriq: Annemariye Shimmelning „Mystische Dimensionen des Islam“ asarida ma'naviy-axloqiy fazilatlaridan qaysilari tilga olingan? Bu fikrlarning hozirgi davrdagi ahamiyati nimada ekanligini yozing. 5-topshiriq: Annemariye Shimmelning „Und Muhammad ist sein Prophet“ asarida ilgari surilgan ma'naviy-axloqiy fazilatlarini pedagogik fikrlar mazmuniga kiritisa bo'ladimi? Fikringizni misollar bilan asoslang. 6-topshiriq: Tajriba jarayonida o'zingizda qaysi ma'naviy-axloqiy fazilatni kuchayganini his qildingiz? Ma'naviy jihatdan o'zgarganingizni unga sababchi bo'lgan misol bilan izohlang. 7-topshiriq: Sizningcha, ma'naviy poklik deganda nima tushuniladi? Annemariye Shimmel bu haqida o'z asarlarida nima deydi? Fikringizni asoslang. 8-topshiriq: Shimmelning tasavvufiy qarashlaridan qanday xulosaga kelish mumkin? Ushbu topshiriqlar talabalarga o'quv yilining boshiga taqdim etildi va ular reja asosida birin-ketin muhokama va tahlil qilindi. Ushbu topshiriqlar yakuniy natijasini son va sifat jihatidan kuzatishimiz mumkin.


Tahlil va natijalar. Annemariye Shimmel merosini o'rganishga doir topshiriqlar bo'yicha yakuniy o'zlashtirish natijalari (1-jadvalga qarang.)

1-Jadval

Tajriba va nazorat guruhlari talabalarining tajriba oxiridagi umumiy ko'rsatkichlari

№	Tajriba guruhi				Nazorat guruhi			
	Talabalar- ning umumiy soni	Yuqori	O'rta	Quyi	Talabalar- ning umumiy soni	Yuqori	O'rta	Quyi
Samarqand davlat chet tillar instituti								
1	93	17	51	25	92	8	29	55
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti								
2	92	18	52	22	93	10	30	53
Buxoro davlat universiteti								
3	92	16	50	26	93	9	30	54
Umumiy	277	51	153	73	278	27	89	162

Yuqorida keltirilgan 1-jadvaldan ko'rish mumkinki, tajriba-sinov ishlarida ishtirok etgan jami 277 nafar tajriba guruhidagi talabalarning 51 nafari "yuqori", 153 nafari "o'rta" va 73 nafari "quyi" darajalarni ko'rsatishdi. Shuningdek, nazorat guruhidagi 278 nafar talabalarning 27 nafari "yuqori", 89 nafari "o'rta" va 162 nafari "quyi" baholar bilan baholandi. Mazkur natijalarning o'zlashtirish dinamikasini hosil qilamiz (3.1-rasmga qarang).



1-rasm. Talabalarining tajriba oxiridagi ko'rsatkichi

Ushbu natijalarning tahlilini foizlarda keltiramiz (2-jadvalga qarang).

2-jadval

Tajriba va nazorat guruhlarining talabalarining tajriba oxiridagi umumiy ko'rsatkichlari foizlarda tahlili

№	Tajriba guruhi				Nazorat guruhi			
	Talabalarning umumiy soni	5 (yuqori)	4 (oʻrta)	3 (quyi)	Talabalarning umumiy soni	5 (yuqori)	4 (oʻrta)	3 (quyi)
Samarqand davlat chet tillar instituti								
1	93	17	51	25	92	8	29	55
%		18,3	54,8	26,9		8,7	31,5	59,8
Oʻzbekiston davlat jahon tillari universiteti								
2	92	18	52	22	93	10	30	53
%		19,6	56,5	23,9		10,8	32,3	57,0
Buxoro davlat universiteti								
3	92	16	50	26	93	9	30	54
%		17,4	54,3	28,3		9,7	32,3	58,1
Umumiy	277	51	153	73	278	27	89	162
%		18,4	55,2	26,4		9,7	32,0	58,3

2-jadvalda keltirilgan tajriba va nazorat guruhidagi talabalarining natijalarini foizlarda tahlil etamiz. Bunda tajriba guruhidagi yuqori ko'rsatkichlar 18,4 % ni, nazorat guruhida esa 9,7 % ni tashkil etdi. Tajriba guruhida o'rtacha ko'rsatkich 55,2 % ni, nazorat guruhida 32 % ni tashkil etdi. Tajriba guruhida quyi ko'rsatkich 26,4 % ni, nazorat guruhida esa 58,3 % ni tashkil qildi.

Shuningdek, o'tkazilgan pedagogik tajriba-sinov ishlari yakunida har bir oliy ta'lim muassasasi talabalarining o'zlashtirish ko'rsatkichlari tahlil etildi. Natijalarga ko'ra, quyidagi farqlar aniqlandi:

1) Samarqand davlat chet tillar institutini tajriba guruhlaridagi talabalarining o'zlashtirish darajasi nazorat guruhlariga nisbatan 14,1 % yuqori bo'ldi;

2) O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti tajriba guruhlarining talabalarining natijalari nazorat guruhidagi talabalaridan 13,96 % ustun keldi;

3) Buxoro davlat universitetini tajriba guruhlaridagi talabalar nazorat guruhlariga qaraganda 12,51% yuqori ko'rsatkichga erishdi.

Xulosa va takliflar. Mazkur tahlillar asosida aytish mumkinki, Samarqand davlat chet tillar instituti talabalarining natijalari O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti va Buxoro davlat universiteti talabalarinikidan yuqori ekan.

Tajriba-sinovning yakuniy bosqichida topshiriqlarni bajarish va Annemariye Shimmel merosini o'rganish yuzasidan respondent talabalarining o'zlahstirish darajasi dastlabki bosqichga qaraganda ma'lum darajada o'sgan, bu tajriba-sinov ishlari jarayonida tajriba guruhlarida ishlab chiqilgan va amalda qo'llanilgan metokaning to'g'ri loyihalashtirilganligidan dalolat beradi. Umuman olganda, Annemariye Shimmel merosini o'rganish bo'yicha ma'lumotlarni o'zlashtirish darajasi ancha yuqori bo'lib, Annemariye Shimmel pedagogik qarashlari, ma'naviy-axloqiy fazilatlar borasida bilimlar majmui kengaygan. Shunday qilib, tadqiqot doirasida ilgari surilgan faraz o'z samarasini berdi. Shu bois tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan metodikani oliy ta'lim muassalari nemis tili ta'lim yo'nalishi talabalarining o'quv jarayoniga keng ko'lamda tatbiq etish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Жалилов З. Б. IX-XII- асрларда шарк мутафаккирлари яратган тарбиявий кадриятлардан олий педагогик таълим жараёнида фойдаланиш технологияларини такомиллаштириш: Пед.фан.доктор(PhD)... дисс. – Бухоро, 2018.
2. Избуллаева Г.В. Жалолиддин Румийнинг маънавий-ахлоқий тарбияга оид қарашларидан таълим жараёнида самарали фойдаланиш: Пед.фан.доктор(PhD)... дисс. – Бухоро, 2018.
3. Нусратов А. XVI-XVII асрларда Бухоро хонлигида таълим-тарбия ва педагогик фикрлар тараққиёти. Пед.фан.доктор(PhD)... дисс.–Бухоро, 2022
4. Farsaxonova D.R. Talabalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash shakl va metodlari// Бошланғич таълимнинг замонавий тенденциялари: Таълим ва тарбия интеграцияси Халқаро илмий-амалий конференция материаллари. Жиззах, 2014.- Б- 89
5. Musurmanov R., Shodmonova M., Musulmonova N., Rasulova M. Uzluksiz ta'lim tizimida pedagogik tajriba-sinov ishlarini tashkil etish mexanizmlari.- T.-2014.-107-112-b.
6. Husanboeva Q. Ta'limning zamonaviy texnologiyalari// Til va adabiyot ta'limi.- Тошкент, 2003. -№3.- Б.8